



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITY NTM REKTORINING
BUYRUG'I

2025-yil "3" 02

№ 8-11

Urganch sh.

**Xorazm viloyati ma'naviyat va
ma'rifat Kengashining 2025-yil
24-yanvardagi 53-sonli Bayoni
ijrosi to'g'risida**

Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi kun tartibida ko'rilgan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-462-sonli qarori to'g'risida" hamda "Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhmud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to'g'risida" gi masalalarini ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani hamda kafedra mudirlariga:

Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli Bayoni kun tartibida ko'rilgan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-462-sonli qarori to'g'risida" hamda "Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhmud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to'g'risida" gi masalalari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori (M.Masharipov)ga, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori (N.Matyakubov)ga:

- Yuqorida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan universitetda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar hamda konferensiyalar o'tkazilishi nazoratga olinsin.

3. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori (M.Masharipov)ga:

- Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan "Alisher Navoiy merosi va uchinchi renessans" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan "Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish hamda 1-ilovaga asosan joriy yilning fevral oyidagi rejaga muvofiq o'tkazilishi nazoratga olinsin.

4. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i (A.Abdullayev)ga:

- ilmiy-amaliy anjuman hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar yakunlanganidan keyin tadbirlarga oid bo'lgan barcha ma'lumotlar va hisobotlar tayyorlansin hamda tegishli joylarga taqdim etilsin.

5. Bosh hisobchi (A.Marksov)ga:

- belgilangan tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar universitet hisobidan qoplanishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli bayoni.

Rektor



M.Ishmuratov

Loyihani kirituvchi:

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar
va ilmiy-pedagogik kadrlarni
tayyorlash bo'limi boshlig'i



A.Abdullayev

Kelishildi:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor



M.Masharipov

Yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektor



N.Matyakubov

Bosh hisobchi



A.Marksov

Xodimlar bo'limi boshlig'i



Z.Narboyev